

SOMONIYLAR SULOSI DAVRIDA AGRAR MUNOSABATLAR

Raximov Oybek Xasanboy o'g'li

E-mail: oybekjon.9990@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA
TARIXI:

Received: 30.10.2025

Revised: 31.10.2025

Accepted: 1.11.2025

Ushbu maqolada Somoniylar sulolasi davridagi yer va suvga bo'lgan munosabat va sulola tomonidan yaratilgan kanallar va suv inshootlari haqida so'z boradi. Bundan tashqari aholining yerdan qanday foydalanishi va yerning turlicha egalik turlari haqida ham keltirib o'tilgan

KALIT SO'ZLAR:

davlat, Somoniylar,
yer-suv
munosabatlari,
manba, daryo,
siyosat, inshoot..

Kirish

Vatanimiz tarixida mavjud bo'lgan har qanday davlat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, davlatchiligimiz tarixida o'zining o'ziga xos davlatchilik an'analari bilan boshqalardan ajralib turuvchi siyosati ila chuqur iz qoldira olgan davlatlardan biri bo'lmish Somoniylar davlati tarixini chuqurroq va har tomonlama xolis o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga qadar ushbu davlat haqida yozilgan ko'plab manbaalar tahlil etildi va shu asosda bir qancha ilmiy tadqiqotlar mutaxasis va omma uchun taqdim etib kelinmoqda. Biroq hanzgacha o'rganilmagan jihatlar ham talaygina. Shu sababdan ham biz o'z o'rganish obyektimizni bir nuqtaga qaratdik va o'rganish obyekti sifatida esa kam tadqiq etilgan jihat bo'lgan Somoniylarda davlatidagi yer-suv munosabatlarini yoritishga harakat qildik.

Somoniylar davri (IX-X asrlar) o'rta asrlarda muhim davr hisoblanib, ushbu davlat arablarga qarshi olib borilgan urushlar natijasida alohida davlat bo'lib yuzaga keldi. Davlat tashkil etilgach esa davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida devonlar

faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir devonga ma'lum bir sohada vazifalar yuklatilgan. Bu haqidagi ma'lumotlar orasida ayniqsa, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" [1] nomli asarida berilgan devonlar tasnifi muhim hisoblanadi. Manbada devonlar turli sohalarda ya'ni moliya, harbiy, rasmiy hujjatlar, qozilik ishlari, vaqf ishlari va boshqa sohalarda boshqaruvni amalga oshirganligi qayd etilish bilan birga, o'rta asrlarda yer-suv munosabatlari, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishda dehqonchilik o'rni va ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, yer egaligi munosabatlari Somoniylar davrida ham alohida e'tiborga olingan edi.

IX - X asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Xorazm shaharlarida ishlab chiqarish rivojlangan bo'lsa-da, Somoniylar davlati asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan agrar davlat bo'lib qoldi. Aholining asosiy qismi su g'oriladigan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Asrlar davomida yaratilgan sug'orish tizimlari, turli xil suv inshootlari: to'g'onlar, suv omborlari, suv ko'taruvchi chigiri, yer osti suv inshootlari - suv taqsimlovchi va boshqalar turli xil ekinlarni yetishtirishga imkon berdi. Sug'oriladigan yerlarning katta qismini g'alla ekiladigan dalalar va bog'lar egallagan. Daryo vodiylari va daryolarning deltalarida, sholi, poliz va sabzavot ekinlari joylashgan.

Zarafshon, Qashqadaryo va Farg'ona vodiylari, Shosh (Choch), Eloq, Xorazm aholisi bug'doy, arpa, suli, no'xat, tariq, yasmiq, zig'ir va boshqalarni yetishtirishgan. Samarqand vohasida asosiy ekin - bug'doydan tashqari, ko'plab zig'ir va kastor yog'i ekinlari bor edi. Bu davrda bug'doy asosan yomg'irli yerlarda yetishtirilgan. Shuningdek, Murg'ob, Buxoro, Samarqand va Shoshning vohalarida ingichka tolali paxtaga katta o'rin berilgan. Safron va piyoz esa boshqa ekinlar turli xil dorilar va bo'yoqlar tayyorlash uchun yetishtirilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, Somoniylar davlatida yer egaligining quyidagi turlari mavjud bo'lgan. Bular: 1) Mulki sultoniy – shaxsan amirga tegishli yer-suv, tegirmon, do'konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olgan. Yana yer egaligining tu'ma (umrbod berilgan yer), iqto (merosiy) turlari bo'lgan. 2) Xususiy shaxslarga tegishli mulk – hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipoxsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar. Shartli yer egaligi ham bo'lgan. 3) Vaqf mulki – diniy muassalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan. 4) Jamoa mulki – yaylov, tog'yonbag'irlaridagi lalmi yerlar [2].

Shuningdek, Somoniylar davriga kelib ya'ni X asrda yangi hodisa davlat yer fondining qisqarishi bo'lib, uni davlat xizmatchilariga shartli egalik (iqto) shaklida taqsimlash

natijasida yuzaga keldi. Iqtoning huquqlari b o'yicha turli o'lchamdagi yerlar butun mintaqadan bitta qishloqqa yoki hatto uning bir qismiga o'tkazildi. Iqto egasi harbiy yoki fuqaro davlat xizmatini o'tashi kerak edi va buning uchun bu yerdagi dehqonlardan haraj va ilgari xazinaga to'langan barcha soliqlardan undirish huquqini oldi. Qonuniy ravishda, iqto yerlari davlat hisoblangan va meros qilib olinmagan, ammo amalda X asrdan beri mavjuddir. Biroq bu davrda iqto egalari ularni vaqtincha mulkdan meros qilib olishlari mumkin edi [3].

Somoniylar davlatida yirik yerga egalik qilish suvdan foydalanish huquqi bilan chambarchas bog'liq edi. Bunda Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan shakllangan an'analaridan tashqari, Somoniylarning suvdan foydalanish borasidagi hukmronligi davrida, olimlar tomonidan tuzilgan "Kitob al-kuniy" (Ariqlar to'g'risida kitob) deb nomlangan suvga egalik qilish, undan foydalanish va uni yo'q qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar to'plamidan keng foydalangan.

Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Somoniylar davlatida suv manbalari va sug'orish ishlari haqida to'xtalib, u Buxoro vohasining sug'orish tizimi, anhorlar bo'ylab joylashgan qishloqlar, bog'lar, rabotlar va ko'shklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bergan. Jumladan, VIII – XII asrlarda Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Buxoro shahri va uning atrofini Karmana, Shopurkom, Harqonot ul-Ulyo, Xarqonrud, Ovxirfar, Somjan, Baykonrud, Faroviz is-Suflo yoki Komil Daymun, Avon, Kayfur, Rudi Zar kabi sersuv anhorlar suv bilan ta'minlab turganligi hamda vohani suv bilan ta'minlab turgan kanal va anhorlar vujudga kelishi tarixi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan [4]. Bu ma'lumotlar orqali Somoniylar davrida suv sug'orish ishlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

Xonbandi to'g'oning balandligi 15,25 metr uzunligi ustki qismida 51,57 metr, asosida 24,35 metr, bandning umumiy uzunligi 1,5 km, eni to'g'on oldida 52 metr, dara og'zida 200 metrga va suv sig'imi esa, taxminan 1 mln. 600 ming m³ ga teng bo'lgan [5]. Xonbandi tufayli Qizilqumning Mirzacho'l bilan tutashgan chegarasida taxminan 1,5 ming ga yer maydoni o'zlashtirilgan. Suv omboridan 6 km shimolda mustahkam rabot qad ko'targan, uning xarobalari Kaltepa deb yuritiladi. Kaltepada olib borilgan arxeologik tekshirishlar bu kichik vohaning X asrda obod etilib, XII asr oxirlarigacha hayot davom etganini aniqlab berdi. Suvni chiqarish uchun Xonbandi inshootining g'arbiy chekkasida 9 ta quvur o'rnatilgan. Ular oqib chiqadigan suvning dinamik ta'siriga qarshi konussimon qilib ishlangan [6].

Xonbandi suv omboriga to'plangan suv o'ziga xos tarzda boshqarilgan. Suv omboridagi suvning tashqariga oqib chiqishi uchun to'g'onning g'arbiy chekkasiga toshlardan past-baland qilib ishlab chiqilgan to'qqizta quvur o'tkazilgan. Ombordagi suvning sathiga qarab quvurlar birin-ketin ochilgan. O'rta asr irrigatorlari quvur o'rnatishda 9 daraning birmuncha yotiqroq qoya toshli s o'l qirg'og'idan ustalik bilan foydalanganlar. Chunki katta tezlik bilan inshootdan oqib tushgan oqim o'zan tubini hamda yon bag'rini yuvib, to'g'onga ham putur etkazishi mumkin edi. Shuning uchun quvurlar shunday mo'ljal bilan qurilganki, har qaysi quvurdan shiddat bilan otilib chiqqan suv avval tog'ning shu qoyasiga kelib urilgan, so'ngra undan soyning quruq o'zani bo'ylab qazilgan ariqqa oqib tushgan [7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish davlat iqtisodiyotining ajralmas qismi b o'lmish qishloq xo'jaligi asosini tashkil etganligi sababli ham har qaysi davr uchun muhim masala hisoblanadi. Somononiylar davlatida ham ushbu masala muhim deb hisoblanib unga alohida e'tibor berilgan. Buning isboti sifatida alohida tashkil etilgan devonlar faoliyati yoki o'sha davrda yerga egalik qilish va suvdan foydalanish huquqi borasidagi masalalar ko'rsatilgan "Kitob al-kuniy" deb nomlanuvchi qoidalar kitobi yaratilganligi va davlatning barcha hududida qadimdan shakllangan an'analar bilan birgalikda amal qilib kelganligida kurishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. –Тошкент.: Камалак, 1991. –Б. 96-111.
2. Сагдулаев А., Аминов Б. Мавлонов Ў. Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Т.: Akademiya, 2000. –Б. 92.
3. Сафаров Иномджон Давронджонович Правовая система государства Саманидов (IX-X вв.) : дисс. и авторефер. по ВАК РФ 12.00.01, канд. Юрид. наук .- Душанбе 1998. –С. 116.
4. Усаров У.А. Ўрта аср ёзма манбаларида Бухоро воҳаси суғориш тизимининг ёритилиши хусусида баъзи мулоҳазалар/ ЎзМУ хабарлари ¼ сон. –Тошкент: 2017 –Б. 108.

5. Муҳаммаджонов А. Қадимги сув иншоатлари тарихидан. –Тошкент: Ўзбекистон, 1968. –Б. 17.

6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси (X ҳарфи) Давлат илмий нашриёти, Т., 2000. –Б.183.

7. Narziev N.N. Tarix fanini o'qitishda o'quvchilarda suvga oid tushunchalarni shakllantirish. –Т. 2016. –В. 8-9.

